

IJTIMOIIY-MADANIY KOMPETENSIYA TUSHUNCHASINING RIVOJLANISHI

Maxmudov Sobitjon Abdurashid o'g'li

Osiyo Xalqaro Universitetida magistr

Annotatsiya: Mazkur maqolada ijtimoiy-madaniy kompetensiya tushunchasining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari pedagogika hamda psixologiya fanlari doirasida tahlil qilinadi. Kompetensiyaviy yondashuvning yuzaga kelishi, uning ta'lim tizimidagi ahamiyati hamda ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning nazariy asoslari yoritilgan. Xususan, Noam Chomsky va Dell Hymes tomonidan ilgari surilgan kompetensiya va kommunikativ kompetensiya nazariyalari mazkur tushunchaning ilmiy manbai sifatida tahlil etiladi. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar (UNESCO, OECD, Yevropa Kengashi) tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyalar hamda O'zbekiston ta'lim standartlarida ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning o'rni ochib beriladi. Maqolada ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning ijtimoiy, madaniy, axloqiy-huquqiy va lingvomadaniy komponentlari tizimli ravishda tavsiflanib, uning zamonaviy ta'lim jarayonidagi ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-madaniy kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, kommunikativ kompetensiya, madaniyatlararo muloqot, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, madaniy qadriyatlar, ijtimoiy moslashuv, global fuqarolik, ta'lim standartlari.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiya tushunchasining shakllanishi pedagogika va psixologiya fanlarida kompetensiyaviy yondashuvning paydo bo'lishi bilan uzviy bog'liqdir. “Kompetensiya” atamasi ilmiy adabiyotlarda XX asrning 60–70-yillarida faol qo'llanila boshlagan bo'lib, dastlab insonning kasbiy faoliyatni samarali bajarishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va shaxsiy sifatlar majmuasini ifodalagan²¹. Ana shu davrda psixologiya va tilshunoslik sohalarida olib borilgan tadqiqotlar kompetensiya mazmunining kengayishiga, uning faqat bilim doirasi bilan cheklanmay, balki amaliy faoliyatda qo'llay olish qobiliyati bilan ham belgilanadigan tushuncha sifatida qaralishiga olib keldi.

Kompetensiya atamasining ilmiy muomalaga kirib kelishida Noam Chomsky va Dell Hymes kabi olimlarning qarashlari alohida o'rin tutadi. Chomsky tomonidan ilgari surilgan lingvistik kompetensiya nazariyasi til egasining grammatik tizimni ichki ong orqali anglay olishi va nutqni yaratish qobiliyati bilan bog'liq edi. Hymes esa bu nazariyani yanada kengaytirib, “kommunikativ kompetensiya” tushunchasini ilgari surdi. Uning fikricha, inson nutqi faqat grammatik qoidalarni bilish bilan chegaralanmaydi; samarali muloqot qilish uchun ijtimoiy kontekstni tushunish, madaniy me'yorlarga moslashish, vaziyatga qarab nutqni moslashtira olish zarur. Hymesning ushbu yondashuvi keyinchalik ta'lim sohasida ijtimoiy-madaniy kompetensiya tushunchasining shakllanishi uchun nazariy asos bo'lib xizmat qildi²².

²¹ Dewey, John. Democracy and Education. New York: Macmillan, 1916, 87–112.

²² Hymes, Dell. Communicative Competence. Sociolinguistics. Penguin, 1972, 269–293.
Kramsch, Claire. Culture in Language Teaching. Oxford University Press, 1993, 1–25.

1990-yillardan boshlab dunyo ta’lim tizimida shaxsga yo’naltirilgan pedagogik yondashuvning kuchayishi kompetensiyaviy ta’lim konsepsiyasining shakllanishiga turtki berdi. Bu davrda ta’limning asosiy maqsadi o’quvchilarga faqat tayyor bilimlarni berish emas, balki ularni real hayotiy vaziyatlarda qo’llay olishga, mustaqil fikrlash va samarali muloqotga o’rgatish deb belgilandi. Shaxsning ijtimoiy tajribani o’zlashtira olishi, turli madaniy muhitlarda moslashuvchan faoliyat yuritishi, jamiyat hayotida faol ishtirok etishi ta’lim samaradorligining muhim mezoniga aylandi²³. Shu tariqa ijtimoiy-madaniy kompetensiya - o’quvchining ijtimoiy va madaniy kontekstni anglash, jamiyatning qabul qilingan qadriyat va me’yorlarini idrok etish, madaniyatlararo muloqotda samarali ishtirok etish qobiliyati sifatida shakllandi.

Bugungi kunga kelib, ijtimoiy-madaniy kompetensiya kompetensiyaviy ta’lim modelining ajralmas tarkibiy qismi bo’lib, shaxsning har tomonlama rivojlanishida, uning fuqarolik pozitsiyasi, madaniy savodxonligi va global dunyoda muvaffaqiyatli faoliyat yurita olishida asosiy omillardan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiya zamonaviy pedagogika, sotsiologiya va madaniyatshunoslik fanlarida shaxsning jamiyat hayotida muvaffaqiyatli ishtirok etishi uchun zarur bo’lgan ijtimoiy va madaniy bilimlar, qadriyatlar, tajribalar hamda muloqot ko’nikmalarini o’z ichiga oluvchi murakkab fenomen sifatida talqin qilinadi²⁴. Mazkur kompetensiya mohiyatan shaxsning o’zini o’rab turgan ijtimoiy-madaniy muhitni anglay olishi, turli madaniy kontekstlarda moslashuvchan harakat qila bilishi hamda milliy va umumbashariy qadriyatlar o’rtasida muvozanatni saqlab faol ijtimoiy pozitsiya namoyon eta olishini anglatadi.

Turli olimlar tomonidan berilgan ta’riflar mazkur kompetensiyaning ko’p qirrali tabiatini ochib beradi²⁵. Jumladan, ba’zi tadqiqotchilar ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning shaxsning madaniy me’yorlar va ijtimoiy rollarni o’zlashtira olish qobiliyati sifatida baholashsa, boshqa guruh olimlar uni madaniyatlararo muloqotga kirisha olish, jamiyatdagi xilma-xil madaniy guruhlar bilan konstruktiv aloqalar o’rnatish, ijtimoiy mas’uliyatni his etish kabi fazilatlar majmuasi sifatida talqin qiladi. Bu yondashuvlar ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning nafaqat bilim doirasini, balki amaliy faoliyat va munosabatlar madaniyatini ham qamrab olishini ko’rsatadi.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan kompetensiyaviy yondashuv ham mazkur tushunchaning ilmiy asoslarini yanada boyitdi. **UNESCO** tomonidan ilgari surilgan “Global fuqarolik ta’limi” konsepsiyasida shaxsning madaniy xilma-xillikni qadrlashi, birgalikda yashash tamoyillarini anglab olishi va madaniyatlararo muloqotda ochiq pozitsiyani egallashi asosiy kompetensiyalar sirasiga kiritilgan. **OECD**ning “DeSeCo” loyiha hujjatlarida esa ijtimoiy-madaniy kompetensiya shaxsning jamiyatda mas’uliyatli ishtirok etishi, turli ijtimoiy guruhlar bilan hamkorlikda faoliyat yurita olishi va madaniy

²³ Freire, Paulo. Pedagogy of the Oppressed. New York: Continuum, 2000, 43–67. Kegan, Robert. In Over Our Heads: The Mental Demands of Modern Life. Harvard University Press, 1994, 15–42.

²⁴ Vygotsky, Lev. Mind in Society. Cambridge: Harvard University Press, 1978, 79–91. Karimova, V. Ijtimoiy psixologiya asoslari. Toshkent: TDPU, 2016, 45–62.

²⁵ G’afforova, G. Pedagogik kompetensiya va uni shakllantirish omillari. Toshkent: TDPU, 2020, 28–41. Sharipov, F. Kompetensiyaviy yondashuv mohiyati. Ma’rifat, 2020, №4, 10–18.

20-Yanvar, 2026-yil

kontekstlarga moslashuvchan yondashuv ko'rsata olishi bilan bog'lanadi. **Yevropa Kengashi** tomonidan ishlab chiqilgan CEFR (Til o'rganishning umumiy Yevropa kompetensiyasi) modelida lingvomadaniy kompetensiya alohida komponent sifatida belgilangan bo'lib, unda o'rganuvchining boshqa xalqlarning madaniyatini anglash, madaniyatlararo farqlarni to'g'ri baholay olish va kommunikativ jarayonda mos strategiyalarni qo'llay bilishi muhim omil sifatida ko'rsatiladi²⁶.

Mazkur yondashuvlar O'zbekiston ta'lim tizimida ham o'z aksini topgan. Davlat ta'lim standartlarida shaxsning **“ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi”**, **“madaniy kompetensiyasi”** asosiy kompetensiyalardan biri sifatida belgilangan. Ushbu kompetensiyalar talabaning milliy qadriyatlarni bilishi, madaniy merosni qadrlashi, jamiyatda faol ishtirok etishi, turli ijtimoiy vaziyatlarda mas'uliyatli qaror qabul qila olishi va madaniyatlararo muloqotda samarali ishtirok etishiga qaratilgan. Shu bilan birga, DTS hujjatlarida ijtimoiy-madaniy kompetensiya shaxsning axloqiy fazilatlarini, fuqarolik burchi, ijtimoiy mas'uliyati va tolerantlik kabi sifatlarini bilan uzviy bog'liq tarzda izohlanadi.

Turli ilmiy maktablar va xalqaro tashkilotlar tomonidan berilgan talqinlar ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning integrativ, ko'p omilli va dinamik jarayon ekanini ta'kidlaydi. U nafaqat bilimlar majmuasi, balki shaxsning ijtimoiy va madaniy hayotda faol, mas'uliyatli, tolerant va muloqotga ochiq bo'lib shakllanishiga xizmat qiluvchi sifatlar tizimi sifatida namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiya murakkab va ko'p qirrali tushuncha bo'lib, u shaxsning jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi, madaniy qadriyatlarni anglash va turli ijtimoiy vaziyatlarda moslashuvchan bo'la olishi uchun zarur bo'lgan bir nechta tarkibiy elementlardan tashkil topadi. Mazkur kompetensiyaning asosiy komponentlari quyidagilardan iborat.

Ijtimoiy komponent. Ijtimoiy komponent shaxsning jamiyat bilan o'zaro munosabatga kirishish qobiliyatini belgilaydi. Bu qismda muloqot madaniyatini egallash, turli ijtimoiy vaziyatlarda o'z rolini to'g'ri bajarish, jamoa bilan ishlay olish, hamkorlikka tayyor bo'lish kabi sifatlar namoyon bo'ladi. Shuningdek, boshqa insonlarning holatini tushunishga, ularga hamdard bo'la olishga asoslangan empatiya ham ushbu komponentning muhim ko'rsatkichlaridan biridir. Bu fazilatlar shaxsning ijtimoiy tizimga moslashuvchan bo'lishiga xizmat qiladi.

Madaniy komponent. Madaniy komponent shaxsning milliy va umummadaniy qadriyatlarga munosabati, ularni anglash va qadrlash darajasini ifodalaydi. Bu element tarkibiga milliy merosni o'rganish, xalqning urf-odatlarini va an'alarini bilish, madaniy boyliklarga hurmat bilan qarash kiradi. Shaxsning madaniy saviyasi oshgani sari jamiyatga nisbatan mas'uliyati, tarixiy merosga g'amxo'rlik qilish ehtiyoji kuchayadi. Bu esa ijtimoiy-madaniy kompetensiyani yanada mustahkamlaydi.

Axloqiy-huquqiy komponent. Axloqiy-huquqiy komponent shaxsning jamiyatda belgilangan axloqiy me'yorlar va huquqiy talablarni tushunishi bilan bog'liq. Shaxs

²⁶ OECD. Key Competencies for a Successful Life and a Well-Functioning Society. Paris: OECD Publishing, 2003, 85–102. UNESCO. Intercultural Competence Development in Education. Paris: UNESCO Publishing, 2015, 9–27. European Council. Common European Framework of Reference for Languages. Strasbourg, 2001, 101–130.

jamiyatning umumiy qoidalariga amal qilishi, o‘z fuqarolik pozitsiyasini anglash va uni mas’uliyat bilan namoyon etishi mazkur komponentning asosini tashkil etadi²⁷. Bu qism shaxsning ijtimoiy ongini shakllantirib, uni jamiyat hayotida faol va mas’uliyatli ishtirok etishga yo‘naltiradi.

Lingvomadaniy komponent. Lingvomadaniy komponent shaxsning madaniyatlararo muloqot jarayonida o‘zini erkin tuta olishini, boshqa jamiyat va millatlar madaniyatiga hurmat bilan yondasha bilishini anglatadi. Bu element chet tillarini o‘rganish jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi, chunki til orqali boshqa xalqlarning qadriyatlari, turmush tarzi va ijtimoiy me‘yorlari anglanadi. Boshqa madaniy muhit vakillariga nisbatan tolerant munosabat shakllanishi lingvomadaniy kompetensiyaning asosiy ko‘rsatkichidir.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning shakllanish jarayoni jamiyatning tarixiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanish bosqichlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan murakkab evolyutsion tizimdir. Uning mazmuni pedagogik fikrning rivojlanishi, ta’lim paradigmasining o‘zgarishi hamda inson faoliyati ko‘lamlarining kengayishi bilan uyg‘un holda takomillashib borgan.

Dastlabki yondashuvlarda ijtimoiy-madaniy kompetensiya ko‘proq tarbiya jarayonining ajralmas qismi sifatida qaralgan. Ta’limning asosiy vazifasi o‘quvchilarga jamiyatda amal qilinadigan me‘yorlar va qadriyatlarni yetkazish, ularda muayyan fe‘l-atvor namunalarini shakllantirishdan iborat edi. Bu davrda kompetensiya tushunchasi chuqur ilmiy anglanmagan bo‘lib, u ko‘proq ijtimoiy moslashuvning elementar ko‘rinishlari bilan bog‘liq tarzda talqin qilingan.

Keyingi bosqichda ijtimoiy-madaniy kompetensiya tushunchasi ilmiy adabiyotlarda mustaqil pedagogik kategoriya sifatida namoyon bo‘la boshladi. Jamiyatning modernizatsiyasi, madaniy almashinuv jarayonlarining kengayishi, kommunikatsiya vositalarining takomillashuvi natijasida shaxsdan nafaqat ijtimoiy me‘yorlarga mos bo‘lish, balki turli madaniy muhitlarda samarali muloqot qila olish ham talab etila boshlandi. Shu orqali ijtimoiy-madaniy kompetensiya nafaqat tarbiyaviy jarayonning natijasi, balki shaxsning faol ijtimoiy subyekt sifatida shakllanishiga ta’sir etuvchi kompleks ko‘nikmalar majmuasiga aylandi.

Zamonaviy rivojlanish bosqichida esa mazkur kompetensiya global ta’lim konsepsiyalarining asosiy tarkibiy qismiga aylangan. Bugungi pedagogik yondashuvlarda ijtimoiy-madaniy kompetensiya shaxsning madaniyatlararo muloqot qila olishi, ijtimoiy muhitning dinamik o‘zgarishlariga moslashishi, raqamli axborot makonida mas’uliyat bilan faoliyat yurita olishi, madaniy xilma-xillikka hurmat bilan qarashi kabi kompleks sifatlar tizimi sifatida talqin qilinadi. Raqamli madaniyatning shakllanishi, global kommunikatsiya tarmoqlarining kengayishi va ijtimoiy munosabatlarning yangi shakllari ushbu kompetensiyaning mazmunini yanada boyitdi. Endilikda u nafaqat an’anaviy tarbiya

²⁷ Behbudiy, Mahmudxo‘ja. Tanlangan asarlar. Toshkent: Sharq, 2019, 112–130. Fitrat, Abdurauf. O‘zbek adabiyoti namunalari va tarbiya masalalari. Toshkent: Fan, 2011, 57–74. Cho‘lpon, Abdulhamid. Asarlar. 2-jild. Toshkent, 2010, 143–160.

elementlarini, balki media madaniyati, global fuqarolik, madaniyatlararo kompetensiya kabi zamonaviy kategoriyalarni ham o‘z ichiga oladi²⁸.

Natijada, ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning rivojlanish bosqichlari uning mazmuni tarixiy jarayonlarga mos ravishda kengayib borganini ko‘rsatadi. An‘anaviy me‘yorlarga asoslangan tarbiyaviy yo‘nalish zamonaviy davrda shaxsning ijtimoiy va madaniy jihatdan faol, mas‘uliyatli va keng dunyoqarashga ega bo‘lgan subyekt sifatida shakllanishini ta‘minlovchi kompleks pedagogik tizimga aylangan.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiya zamonaviy ta‘lim tizimida shaxsning har tomonlama rivojlanishi va jamiyat hayotiga muvaffaqiyatli integratsiya qilinishi uchun muhim pedagogik kategoriya sifatida qaraladi. Uning ahamiyati, avvalo, o‘quvchi yoki talabanning ijtimoiy muhitda samarali faoliyat yurita olishi, turli madaniy kontekstlarni anglay bilishi va jamiyatning ijtimoiy jarayonlariga mas‘uliyat bilan munosabat bildira olishi bilan belgilanadi. Bunday kompetensiya shaxsning nafaqat bilish jarayonida, balki kundalik hayotda ham mustaqil qaror qabul qilishi, o‘z fikrini asosli bayon etishi va jamiyatda konstruktiv muloqot olib borishi uchun zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Dewey, J. Democracy and Education. New York: Macmillan, 1916. B. 87–112.
2. Hymes, D. Communicative Competence. In: Sociolinguistics. London: Penguin, 1972. B. 269–293.
3. Kramsch, C. Culture in Language Teaching. Oxford: Oxford University Press, 1993. B. 1–25.
4. Freire, P. Pedagogy of the Oppressed. New York: Continuum, 2000. B. 43–67.
5. Kegan, R. In Over Our Heads: The Mental Demands of Modern Life. Cambridge: Harvard University Press, 1994. B. 15–42.
6. Vygotsky, L. Mind in Society. Cambridge: Harvard University Press, 1978. B. 79–91.
7. Karimova, V. Ijtimoiy psixologiya asoslari. Toshkent: TDPU, 2016. B. 45–62.
8. G‘afforova, G. Pedagogik kompetensiya va uni shakllantirish omillari. Toshkent: TDPU, 2020. B. 28–41.
9. Sharipov, F. Kompetensiyaviy yondashuv mohiyati. Ma‘rifat gazetasi, 2020, №4. B. 10–18.
10. OECD. Key Competencies for a Successful Life and a Well-Functioning Society. Paris: OECD Publishing, 2003. B. 85–102.
11. UNESCO. Intercultural Competence Development in Education. Paris: UNESCO Publishing, 2015. B. 9–27.
12. European Council. Common European Framework of Reference for Languages. Strasbourg, 2001. B. 101–130.

²⁸O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3832-son Qarori, 2018, 2–15.
Shamshiddinova, N. Ta’limda innovatsion jarayonlar. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018, 88–104.
UNESCO. Intercultural Competence Framework. <https://unesco.org/intercultural-competences>

20-Yanvar, 2026-yil

13. Behbudiy, M. Tanlangan asarlar. Toshkent: Sharq, 2019. B. 112–130.
14. Fitrat, A. O‘zbek adabiyoti namunalari va tarbiya masalalari. Toshkent: Fan, 2011. B. 57–74.
15. Cho‘lpon, A. Asarlar. 2-jild. Toshkent, 2010. B. 143–160.
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–3832-son Qarori. 2018. B. 2–15.
17. Shamshiddinova, N. Ta’limda innovatsion jarayonlar. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. B. 88–104.
18. UNESCO. Intercultural Competence Framework.
<https://unesco.org/intercultural-competences>
19. Панжизода Х. Ситуация насилия и притеснения в семье на примере Узбекистана. Социология и право". ISSN 2219-6242 (Print) . №3. Москва. Социология и право. 2025. Т. 17. No 3. – С. – 336-344.

Global
Science
Publication